



## FARG'ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 22-oktabr

124-11-154-F/24

Buvayda tuman hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28 va 73-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga:**

1. 2024-yil 27-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga deputatlik saylovi tadbirlarini Buvayda tumanida tashkil etishdazarur bo‘layotgan xarajatlar uchun, tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi tasdiqlangan xaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 47.9 (qiriq yetti million to‘qqiz yuz ming) mln. so‘m mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.
2. Tuman hokimligi bosh hisobchisiga:- ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning maqsadliyo‘naltirilishini ta‘minlash;- moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibdarasmiylashtirilgan hujjatlarni tegishli tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi vag‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etilishini nazoratga olish vazifalari yuklatilsin.
3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (Sh.Soliyev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.
4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Maxsitaliyev zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**IBRAGIMOV  
BEXZOD.ODILJONOVICH**